

Teatrning tarovatli tarbiyaviy tuhfasini

Ma'naviy hordiq chiqarish aslida, ish unumining oshishi, oradagi munosabatlarni mehr va samimiyatga qurilishiga zamin hozirlaydi. Ruhiyatning tetik va kayfiyatning ko'tarinki bo'lishiga nima yetsin. Hayot haqiqati san'at tili bilan badiiyatga yo'g'rilishida ulug' hikmat bor. Buni anglash ehtiyoji sizni beixtiyor teatrga yetaklaydi. Jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy e'tirof etganidek, teatr bu ibratxonadir. Shunday ekan, ko'z va quloq orqali olingan axborot ham qalb malhami sifatida ibrat va izzatning mohiyatini anglatadi.



1-aprel kulgi va hazil kuni o'rnida e'tiborga molik. Bu ham insonlarning zavq-u shavqiga bois bo'luvchi bayram. Ana shu munosabat bilan bayram tabrigi va jamoamizning kayfiyatiga ko'tarinkilik baxsh etish ma'nosida madaniy hordiq chiqarishlarini nazarda tutgan holda, O'zbek milliy akademik drama teatriga spektakl tomoshasiga tashrif amalga oshirildi. Milliy teatrning zali Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining jamoasi bilan gavjum, liq to'la bo'ldi. Spektakl boshlandi.



"Ko'ngil" nomli spektakl tomoshasi davomida mahoratli aktyorlar Farhod Abdullaev, Muqaddas Xoliqovalarning sahnadagi harakatlari va gap - so'zlari tomoshabinlarni dam kuldurib, dam o'ylantirib tomoshabinlarga zavq baxsh eta boshladi. Tomoshabinlarning diqqatini tortgani voqea-hodisalar zanjiri ijtimoiy-maishiy mavzuda bo'lganidir. Oilaviy munosabatlar kelin va qaynona, kuyov va ota-ona munosabatlari zamiriga qurilgan munosabatlar va ko'ngil kechinmalari unda ro'yi rost ifodasini topgan.



Mavlono Lutfiy iborasi bilan aytganda "Zor-u hayron qiladurgan, bu ko'nguldur, bu ko'ngul" misralarning mazmun-mohiyati spektakl nomidagina emas, balki spektaklning syujetida ham o'zining to'la in'ikosini topgan desak, mubolag'a bo'lmas. Ko'ngil rishtasi mustahkam bo'lishi uchun munosabatlar samimiyat va o'zaro ishonchga qurilishiga bog'liq. Do'st bo'lish oson, lekin uni saqlash qiyin, uzma do'stlik torini bog'lash qiyin degan shoirning misralari beixtiyor yodga keladi. Teatr tomoshasidan olingan zavq va xulosa shu bo'ldiki, ko'ngil ko'ngildan kuch oladi, qalb qalbdan huzur oladi. Dil malhami faqat suvratda emas, balki siyratda hamdir. Gap pardoz - andozda emas, dil rozida, ko'ngil parvozida ekanini his etasiz. Personajlar tilidan aytilgan Umar Xayyomning "Lutfingla bir qulni qila olsang, yaxshidur yer yuzin qilgandan obod"- degan bitigi ko'ngil timsoliga aylangani rost. Institutimizning rahbariyati, kasaba qo'mitasi teatr tomoshasiga taklifi bilan jamoamizga ko'ngil quvonchi va bayram tuhfasini baxsh etganidan xodimlar benihoya shod bo'lishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati